



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



UNDOVLARINING TILIMIZDA TUTGAN O'RNI

Abdurasulova Zarifa Qurvonboy qizi

Farg'ona davlat universiteti

xorijiy tillar va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi,

Ilmiy rahbar: **M. Qurbonova**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

zarifaabdurasulova538@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolda o'zbek urf-odatlar bilan bog'liq undov so'zlarning qo'llanishi, ularning milliy qadriyatlar va madaniyatdagi o'rni tahlil qilinadi hamda ular haqida batafsil ma'lumot berib o'tiladi.

Annotation: This article analyzes the use of interjections related to Uzbek traditions, examines their role in national values and culture, and provides detailed information about them.

Kalit so'zlar: oh, undov, voy, eh, urf-odat, qadriyat, his va tuyg'u ovozi.

Key words: oh, interjection, custom, voice of feelings and emotions.

Til inson ruhiyatining oynasi, uning his-tuyg'ularini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Inson quvonchini, hayratini, g'azabini yoki qo'rquvini bildirayotganda so'z bilan bir qatorda undovlardan ham foydalanadi. Undovlar bu insonning turli hissiy holatini ifodalovchi mustaqil so'z turkumidir. Ular gapdagi boshqa so'zlarga grammatik jihatdan bog'lanmaydi, lekin gapning mazmuniga kuchli ta'sir o'tkazadi. O'zbek tilida xalqning ruhiyati, his-tuyg'usi, quvonchi va iztirobi ko'pincha undov so'zlar orqali ifodalanadi. Undovlar qadim zamonlardan buyon inson nutqida mavjud bo'lgan. Insonlar hali to'liq so'zlashuv tili shakllanmagan davrda ham hayrat, qo'rquv yoki hursand paytida tabiiy tovushlar-oh, ah, ey, voy kabi so'zlarni ishlatganlar. Undovlar tildagi eng qadimiy qatlamlardan biri bo'lib, ular orqali inson o'z holatini tabiiy ifoda etadi. Masalan: "Ura! Biz g'olib bo'ldik", "Voy! Qanday chiroyli manzara". Bu so'zlar orqali inson o'z tuyg'usini so'z bilan emas, ohang bilan bildiradi. Shu bois undovlar tilda ohangdorlik va ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida qaraladi. Undovlarning eng asosiy vazifasi so'zlovchining ichki holatini ifodalash, nutqqa tabiiylik kiritishdir.

Masalan: "Voydod! Unga nima bo'ldi?"- bu undov qo'rquv va tashvish ifodasidir.

"Eh, shunaqa bo'ldi-da!"- bu undov achinish va hafsalasizlikni bildiradi. Undovlar, shuningdek, insonlar o'rtasidagi muloqotni jonlantiradi. Ular yordamida gapning ohangi, so'zlovchinig munosabati, kayfiyati, va holati tinglovchiga tezda yetkaziladi. Shu bois undovlar nafaqat grammatik, balki psixologik va estetik ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi asrlar davomida o'zining boy madaniy merosi, urf-odatlar va marosimlari bilan ajralib turgan xalqdir. Har bir marosimda, har bir yig'inda



yoki muhim voqeada xalq o'z his-tuyg'usini nafaqat so'z, balki undovlar orqali ham ifoda etadi. Shu boisdan, urf-odat undovlari o'zbek xalqining milliy ruhini, ichki-kechinmalarini, quvonch va qayg'ularini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Har bir marosimda- to'yda, sunnat to'yi, nikoh to'yi, yangi yil, g'alaba kabi vaziyatlarda xalqimizning nutqida turli quvonch undovlari keng qo'llanadi:

"Ura!"- g'alaba, muvaffaqiyat, quvonch ifodasi. "Eh-he!"- quvonch bilan aralashgan hayrat. To'y marosimlarda aytiladigan undovlar xalqning quvonchini ifodalaydi:

"Ura! Kelin keldi", "Voy, qanday go'zal kelinchak!"

Qayg'u, motam yoki yo'qotish paytlarida xalq nutqida achinish, og'riq va iztirobni ifodalovchi undovlar ishlatiladi. Bu undovlar orqali inson o'zining dardini so'z bilan emas, his bilan ifodalaydi: "Voydod!"- chuqur iztirob, hayqiriq. "Eh, dunyo!"- hayotning o'tkinchiligi haqidagi iztirob. O'zbek xalqining diniy dunyoqarashida ham undovlar muhim o'rin tutadi. Ular ilohiy holat, duo, shukronalik yoki iltijo ma'nosida ishlatiladi: "Oh, Xudoyim!"- yordam so'rash yoki minnatdorlik. "Allohu Akbar!"- ulug'lik, e'tiqod ifodasi.

Undovlar adabiy nutqda ham keng qo'llanadi. Ular asarga hayotiylik, ta'sirchanlik, tabiiylik bag'ishlaydi. Adiblar asarlarida qahramonlarning ruhiy holatini ko'rsatish uchun undovlardan ustalik bilan foydalaniladilar. Masalan, Abdulla Qahhor asarlarida: "Voy, bu bola qanchalar sho'x!" deyish orqali hayrat va quvonch ifodalanadi. Oybekning "Navoiy" romanida esa: "Eh, dunyo!"- degan undov orqali shoirning iztirobi, hayotdan nolishi ifodalangan. Xalq og'zaki ijodida ham undovlar hissiyot kuchini oshirish, tomoshabin yoki tinglovchini ruhlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular nutqqa tabiiylik, hayotiylik va samimiylik baxsh etadi. Misol uchun, dostonlarda yoki qo'shiqlarda:

"Oh, yorim, senga yetolmadim!"

"Voy, botir yigit, qanday jasur bo'larding!"

Undovlar – tildagi eng tabiiy, hayotiy va hissiy so'zlardir. Ular inson qalbidagi holatni, hayajonni yoki og'riqni hech bir izohsiz, so'zsiz ham tushunarli qilib ifodalaydi. Undov so'zlar nutqni jonlantiradi, unga ruh va ta'sir bag'ishlaydi. Shu bois undovlar tildagi "his va tuyg'u ovozi" deb ham ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Hojiyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1995.
- 2.Numonov A, Eshonqulov T. O'zbek tili grammatikasi, 2005.
- 3.Karimov G'. O'zbek tili stilistikasi, 2008.
- 4.O'zbek xalq og'zaki ijod namunalaridan.